# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024

№ 2




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati


74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 646 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d. TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musyeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi



Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr ........ 8
**Baxtiyor Islamov**

Kichik biznesni rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati ........ 10
**Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G‘oipnazarov**

Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ... 16
**Zufarova Nozima Gulamiddinovna**

Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko‘rsatkichlari va ekologik muammolar ........ 24
**Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich**

Yashil budjetlashtirish va uni O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari ........ 30
**Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi**

Iqtisodiyotda ta’lim va fan integratsiyasining asosiy yo‘nalishlari ........ 35
**Yormatov Ilmidin Toshmatovich**

Transport vositalari va yo‘llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir ........ 39
**Agzamov Shaxboz Akmalovich**

Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish ........ 44
**A. X. Salamov**

Biznes-reja baliqchilik xo‘jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida ........ 48
**Dosmuratova Shaxista Kengashovna**

Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog‘liqligi ........ 55
**Axmediyeva Aliya Toxtarovna**

Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ........ 63
**Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich**

Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari
va ularni bartaraf etish yo‘llari ........ 67
**Shamsiyev Nodir Muratovich**

Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari ........ 72
**Shagazatov Oybek bahodirovich**

Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo‘nalishlari ........ 76
**Davlatov Sanjar Abdimannonovich**

Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik
faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari ........ 80
**Mirzatov Baxtiyor Toxirovich**

Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo‘nalishlari ........ 84
**Yuldasheva Kamola Miraliyevna**

O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini
takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) ........ 89
**Yoriyeva Farangiz Murodillayevna**

Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi ........ 94
**Nazarova Umida Avazovna**

Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari ........ 98
**Mirzaxodjayev Alisher Botirovich**

Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish ........ 103
**Mirzayev Musurmon Umidullayevich**

Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o‘rni va ahamiyati ........ 108
**Fayziyeva Aziza Azamat qizi**

Ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili ........ 113
**Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich**

Ta’minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish ........ 119
**Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi**

Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari ........ 123
**Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich**

Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан ........ 129
**Абдурахманова Матлуба Махамадаминовна**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari....135
**Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich**

Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish....141
**Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva**

Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili....148
**Sultonboeva Munira bahodirovna**

Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar....154
**Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li**

Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта....159
**С. С. Алиева, А. Назаров**

Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish....167
**Sheraliyeva Saida Azatovna**

Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari....170
**Ergashev Sarvar Xudoynazarovich**

Инклюзивное образование и его особенности....175
**Зайнутдинова Умида Джалоловна**

Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari....179
**Qurbonov Muxiddin Abdullayevich**

Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari....184
**Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li**

Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari....188
**Izbosarov Boburjon Bahriddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li**

O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi....193
**G. Adilova**

Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash....197
**Mardiyev Nurali**

Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari....203
**Yaxyayeva Inobat Karimovna**

Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili....207
**Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li**

Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari....213
**Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari....221
**Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna**

O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi
instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar....226
**Eshimov Alisher Dusmurodovich**

Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash
metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi)....234
**Norqobilov Akobir Iso o'g'li**

Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari....240
**Rabbimov Elbek Abdulloyevich**

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari....245
**Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li**

Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari....250
**Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li**

Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari....256
**Kenjayev Soxib Sayfiyevich**

O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati
samaradorligini yanada oshirish....260
**Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi**

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli....266
**Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li**

Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari....274
**Sobirov Otabek Olimjonovich**

Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo‘llari ........ 277
**Kultayev Farxod Shavkatovich**

Tijorat banklari foydasi va rentabillik ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish ........ 281
**Normo‘minov Temurbek Sheraliyevich**

O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo‘llari ........ 284
**To‘ychiyev Otabek Shamshiyevich**

Venchur kapitalining mohiyati va O‘zbekistonda venchur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari ........ 288
**Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna**

Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash zarurati ........ 293
**Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug‘bek o‘g‘li**

Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta’sirini ko‘p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish ........ 297
**Abdunazarova Shahnoza Norqo‘chqor qizi**

Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo‘llari ........ 302
**Abdullayev Boburjon Akbaralievich**

Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o‘rni ........ 306
**Akbarov Akmalxon Akrom o‘g‘li**

Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish ........ 310
**Mirzayeva Nargiza Batirovna**

Talabalarning oilali bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv ........ 314
**O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov**

Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation ........ 319
**Mukhlisa Ikramova**

Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o‘rni va iqtisodiy rivojlanishga ta’siri ........ 325
**Yusupov Muhammadali Soxib o‘g‘li, J.D. Xojiyev**

Temir yo‘l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo‘yicha xorijiy tajriba ........ 329
**Kadirova Sharofat Amonovna**

Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО “Ўзтемирйўлйўловчи” ........ 332
**Н. Э. Кахарова**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi ........ 337
**Sharipov Bobur Anvar o‘g‘li**

“STEKLOPLASTIK” MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish ........ 342
**Musyeva Shoira Azimovna**

Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari ........ 348
**M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova**

Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans ........ 353
**Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova**

Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligiini KPI orqali baholash uslubiyati ........ 357
**Toshpo‘latov Azizbek Shermuxamadovich**

Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag‘al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari ........ 362
**Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma’rifat Umarovna**

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o‘ziga xos xususiyatlari ........ 369
**Tursunova Shaxnoza Farxod qizi**

Процессы цифровизации АО “Hududgazta’minot” ........ 373
**Хусанов Кахрамон Нишонович**

O‘zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo‘llari ........ 378
**Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G‘ofurbek Iskandarbek o‘g‘li**

Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi ........ 381
**Bobayev Isroiljon Abdinabiyevich**

Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta’sirini ekonometrik modellar bilan baholash ........ 386
**Saydullayev Azamat Jo‘raqul o‘g‘li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari ........ 394
**Sh. Madraimov**

Kapital bozorida sug‘urta kompaniyalar institutsional investor sifatida ........ 397
**Xasanova Lola Mamasharifovna**

Yangi O‘zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko‘p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari ........ 400
**B. B. Berkinov**

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari ........ 409
**G‘afurov Umidjon Bahodir o‘g‘li**

Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta’minlangan aholi qatlamini qo‘llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida) ........ 413
**Karimov Bekzodjon Ilxomovich**

Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari ........ 420
**Pardayev Ilhomjon G‘ulomjon o‘g‘li**

Финансы или корпоративные финансы ........ 426
**Уринов Бобур Насиллоевич**

In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features ........ 432
**Akhunova Shakhistakhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugoppor kizi**

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari ........ 437
**Jo‘rayev O‘ktam Panji o‘g‘li**

Сокращение уровня бедности в Узбекистане ........ 443
**Амирджанова Ситора Суннат кизи**

Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta’sirini baholash ........ 448
**S. B. Inoyatov**

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ........ 453
**Maxmudov Rahimjon Hamid o‘g‘li**

Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari ........ 460
**Ollokulova Feruza Mansurovna**

Kambag‘allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta’minlashning muhim omili ........ 463
**Usmanov Baxodir Baxtiyorovich**

Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati ........ 469
**Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanovna**

Tijorat banklari o‘rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta’minlash istiqbollari ........ 473
**M. Yuldosheva**

Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari ........ 480
**Kurbanova Mehriniso Nematjanovna**

O‘zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili ........ 487
**Mirzayev Mirza Abdullayevich**

Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini institutsional tahlil qilish mexanizmi ........ 492
**Saydullayeva Saodat Abdumajidovna**

Integrasiya sharoitida to‘qimachilik sanoatining rivojlanishi ........ 499
**Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna**

Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarini takomillashtirish ........ 503
**Karamatova Noiba Husnitdinovna**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning nazariy jihatlari ........ 510
**Mamatov Mamajan Axmadjonovich**

Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ ........ 517
**Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммедович**

O‘zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo‘llari ........ 522
**Sultanov Baxram Begdullayevich**

Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях ........ 526
**Самигова Гуландом Абдужаббаровна**

Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta’lim sifatiga ta’siri ........ 534
**Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi**

Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin ........ 539
**Muminov Akmal Tulkunovich**

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta’lim tizimining ta’siri ........ 543
**Nasimov Adiz Azamat o‘g‘li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich**

Respublikada fermer xo‘jaliklarga xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish va agroxizmatlar bozorini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari ........ 548
**Shukurov Ilxom Safarboyevich**

Turli mamlakatlarda oliy ta’limni moliyalashtirish yo‘llari ........ 555
**Umarova Moxigul Maxmayunus qizi**

Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi ........ 560
**Yuldashev G‘iyos Turabekovich**

Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari ........ 564
**Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna**

Qishloq xo‘jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish ........ 570
**Boltayev Abror Sayitmuradovich**

Секреты интересного урока в начальной школе ........ 577
**Гараева Олеся Владимировна**

Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o‘rni ........ 580
**Ibragimova Gulchehra Toxirovna**

Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi ........ 584
**Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich**

O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida ........ 591
**Nabiyev Feruz Nurmurodovich**

Fundamentals of Innovative Management and its Organizational Control ........ 597
**Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamatovich**

Moliyaviy menejment tizimini rivojlantirishda raqamli marketingdan foydalanishning afzalliklari ........ 602
**Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich**

Оценка экономической эффективности использования фотоэлектрической тепловой установки ........ 606
**Жураев Ислом Рахматович, Юлдошев Исроил Абриевич, Жураева Зухра Исламовна**

Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro tajriba ........ 612
**Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich**

Turizm infratuzilmasi va uning tarkibiy tuzilishi ........ 619
**Po‘latov Ma’murjon Murodjon o‘g‘li**

Oliy ta’lim xizmatlari bozorining rivojlanishi sabablari ........ 623
**Abdukadirova Kamola Azimovna**

Mintaqada turizm sohasini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalari ........ 627
**Isomiddinov Inomjon Qurvonali o‘g‘li**

Ichki turizmni rivojlantirish bo‘yicha infrastruktura holati ........ 634
**Dehqonov Burxon Rustamovich**

Soliqqa tortish maqsadida kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari ........ 640
**Kamilov Abror Anvarovich**

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

# ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA INFRASTRUKTURA HOLATI

**Dehqonov Burxon Rustamovich**
TDIU Turizm kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ichki turizmning asosiy afzalliklaridan biri uning mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'siridir. Turistlar biror joyga tashrif buyurganlarida, odatda, turar joy, oziq-ovqat, esdalik sovg'alari va transport uchun pul sarflashadi. Sayyohlik xarajatlarining bunday oqimi mahalliy biznesga sezilarli turtki berishi, ish o'rinlari yaratish va aholining turmush tarzini qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Bundan tashqari, mahalliy turizm mintaqaning madaniy merosini saqlash va namoyish etishga yordam beradi. Ichki turizmda faol aholi tarixiy diqqatga sazovor joylarni o'rganishga va madaniy tadbirlarga borishga undash orqali jamoalar o'zlarining an'analari haqida xabardorlik va bilimlar olishi mumkin. Bu tarixiy joylarni, an'anaviy hunarmandchilikni va mahalliy xalqlarning urf-odatlarini saqlash bo'yicha sa'y-harakatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Kalit so'zlar: Ichi turizm, iqtisodiyot, madaniy me'ros ob'yektlari, faol aholi oqimi, sayyohlik xarajatlari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar.

Abstract: One of the main benefits of domestic tourism is its positive impact on the local economy. When tourists visit a place, they usually spend money on accommodation, food, souvenirs and transportation. This influx of tourism spending can provide a significant boost to local businesses, creating jobs and supporting the livelihoods of residents.

In addition, local tourism helps preserve and showcase the cultural heritage of the region. In domestic tourism, communities can gain awareness and knowledge about their traditions by encouraging active residents to explore historical sites and attend cultural events. This can lead to increased efforts to preserve historic sites, traditional crafts, and the customs of indigenous peoples.

Key words: Domestic tourism, Economy, objects of cultural heritage, active population flow, UNWTO, tourist expenses, organizational and economic mechanisms.

Аннотация: Одним из основных преимуществ внутреннего туризма является его положительное влияние на местную экономику. Когда туристы посещают какое-либо место, они обычно тратят деньги на проживание, еду, сувениры и транспорт. Этот приток расходов на туризм может дать значительный импульс местному бизнесу, создать рабочие места и поддержать средства к существованию жителей.

Кроме того, местный туризм помогает сохранять и демонстрировать культурное наследие региона. Во внутреннем туризме сообщества могут повысить осведомленность и знания о своих традициях, поощряя активных жителей исследовать исторические места и посещать культурные мероприятия. Это может привести к активизации усилий по сохранению исторических мест, традиционных ремесел и обычаев коренных народов.

Ключевые слова: Внутренний туризм, Экономика, объекты культурного наследия, активный поток населения, ЮНВТО, туристские расходы, организационно-экономические механизмы.

## KIRISH

Turizm o'zining ko'p qirrali turlari bilan barcha sohalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritib kelayotgan sohalardan biridir. Ichki turizm iqtisodiyotning ko'pgina jabhalarini rivojlantirishga imkon tug'diradi.

Jumladan, mehmonxona va mehmon uylari, umumiy ovqatlantirish korxonalari, transport xizmatlari, kommunal uy xo'jaliklari, yo'l qurilish, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo tarmoqlari va servis sohalaridir. Ichki turizmni rivojlantirish bir vaqtni o'zida o'ziga xos dam olish, ko'ngil ochar maskanlar industriyasini o'z ichiga oladi. Turizmda asosiy xizmatlar qo'shimcha xizmatlar mavjud bo'lib, asosiy xizmatlarga bo'linadi:

- kutib olish xizmatlari;
- joylashtirish xizmatlari;
- ovqatlantirish xizmatlari;
- transport xizmatlari;
- ekskursiya xizmatlari.

Har bir xizmat infrastrukturasi mukammal shakllanganda turistlarda muammolar kuzatilmaydi. Yana qo‘shimcha xizmatlar mavjud bo‘lib, ular ham jarayonlarda bevosita ishtirok etadi. Kutib olish xizmatlariga demak masofalardan turib ishlash tushuniladi. Turfirmadan mas’ul xodim turistni kutib olishga aeroportga borishi yo‘l infratuzilmasini, aeroport infratuzilmasini va transport infratuzilmasini xalqaro va ichki standartlarga javob berishini talab qiladi.

Joylashtirish xizmatlarida mehmonxona va mehmon uylarini infratuzilmasi ham standartlarga to‘g‘ri kelishi, ular mamlakatning turist qabul qilishi salohiyatiga yetarli bo‘lishi kerak.

Umumiy ovqatlantirish korxonalarining infratuzilmalari turizmda turistlar uchun xizmat ko‘rsatish sifatlari ham mukammallik talab etadi.

Turistlarni tashishda transport xizmatlari infratuzilmasi ham turizmni rivojlanishiga uni barqaror borishda bevosita xizmat ko‘rsatadi.

Ichki turizm mamlakat iqtisodiyotida pul massasini aylanishini tezlashtirish bilan bozor iqtisodiyotini rivojlantirmoqda. Ichki turizmda madaniyat almashinuvi, aholining maqsadga qarab tashrif buyurgan manzil haqida ma’lumot olishi yoki biror bir mavzuda qo‘shimcha bilimga ega bo‘lishi kuzatiladi. Tashrif buyurgan ichki turistlar shu joyga mablag‘ sarflab aholini yashash tarzini yaxshilashga olib keladi. Tashrif buyurgan hududlarda infrastrukturalar shakllana boshlaydi. Eng muhimi aholining turizm savodxonligi oshadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz turizm infrastrukturasi holati haqida gapirar ekanmiz, avvalo, joylashtirish vositalari ko‘z oldimizga keladi. Xalqaro va ichki talab standartlariga mos keladigan mehmonxonalar soni bir qancha bo‘lib 5 yulduzli mehmonxonalar soni 2 ta, 4 yulduzli mehmonxonalar esa 11 ta, 3 yulduzli mehmonxonalar soni 27 tani tashkil etadi. Respublikamizda katta va kichik mehmonxonalar soni 959 ta bo‘lib, mehmon uylari 3139 tani tashkil etadi. Mehmonxonalarning umumiy xonalar soni esa 28 407 tani, o‘rinlar soni esa 55 362 tani tashkil etadi. Bu sanab o‘tilgan obyektlarni viloyatlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak 1-rjadvalda o‘z aksini topgan.

1-jadval: Respublikamizdagi 2023-yilda mehmonxonalar, mehmon uylari va turoperatorlar soni[1]

| № | Viloyat | Mehmonxonalar | Hostellar | Turoperatorlar |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Andijon | 20 | 14 | 37 |
| 2 | Buxoro | 171 | 69 | 116 |
| 3 | Jizzax | 28 | 13 | 10 |
| 4 | Qashqadaryo | 36 | 28 | 20 |
| 5 | Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 27 | 20 | 49 |
| 6 | Navoiy | 29 | 29 | 22 |
| 7 | Namangan | 26 | 8 | 55 |
| 8 | Samarqand | 126 | 44 | 187 |
| 9 | Sirdaryo | 13 | 14 | 11 |
| 10 | Surxondaryo | 42 | 9 | 38 |
| 11 | Toshkent viloyati | 39 | 45 | 49 |
| 12 | Toshkent shahri | 300 | 181 | 892 |
| 13 | Farg‘ona | 43 | 24 | 62 |
| 14 | Xorazm | 59 | 21 | 64 |

Mehmonxonalar soni bo‘yicha Toshkent shahrida ko‘pligini ko‘rishimiz mumkin. 300 ta mehmonxona, 181 ta Mehmon uyi va 892 ta turoperatorlar hozirgi kunda faoliyat olib bormoqda.

Ikkinchi o‘rinda Buxoro viloyati bo‘lib, mehmonxonalar bo‘yicha 171, mehmon uylari bo‘yicha esa 69, 116 turoperatorlar xizmat ko‘rsatmoqda.

Uchinchi o‘rinda Samarqand viloyati bo‘lib, mehmonxonalar soni 126, mehmon uylari soni 44 bo‘lib, turoperatorlar esa 187 tani tashkil etadi. Samarqandda turoperatorlar soni Buxorodan 71 taga ko‘pligini ko‘rishimiz mumkin.

Keyingi navbatda Xorazm viloyati mehmonxonalar soni bo‘yicha 59, mehmon uylari soni 21, turoperatorlar soni esa 64 tani tashkil etadi.

Farg‘ona viloyatida mehmonxonalar soni 43, mehmon uylari 24, turoperatorlar soni esa 62 tani tashkil etadi.

1 Turizm qo‘mitasi ma’lumoti.

Toshkent viloyatida joylashtirish xizmatlarida mehmonxonalar soni 39, mehmon uylari esa 45, turoperatorlar soni 49 tani tashkil etmoqda.

Qashqadaryo viloyatida mehmonxonalar soni 36, mehmon uylari soni esa 28, turoperatorlar soni 20 tani tashkil etadi.

Surxondaryo viloyati mehmonxonalar soni bo‘yicha boshqa viloyatlarga nisbatan yaxshiligini ko‘rishimiz mumkin, ular 42 tani tashkil etdi, lekin mehmon uylari bo‘yicha respublikada eng kam natijani qayt etdi. Turizm industriyasida joylashtiruv vositalari infratuzilmasi qanchalik yaxshi shakllangan bo‘lsa, ichki va xalqaro turistlar soni ko‘p bo‘ladi.

Ichki turizmda ko‘proq yulduzli mehmonxonalarga qaraganda mehmon uylariga talab oshmoqda. Chunki ularning narxi mehmonxonalarga qaraganda arzonligi va qulayligi bilan ajralib turadi.

Oilaviy mehmon uylar soni to‘rt yil ichida ortib borganligini ko‘rishimiz mumkin. 2018-yildan 2022-yilgacha oilaviy mehmon uylari 106 tadan 2458 tagacha ya’ni 23 karraga ko‘paygan. Davlatning turizm siyosati turistlarni jaylashtirish muammosini hal qilishda ko‘p imkoniyatlar berganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu yilda oilaviy mehmon uylaridan tashqari hostellar, o‘tov lagerlari majmuasi, avtokempinglar, ekouylar majmuasi, konteyner shaharchalari va chodirli lagerlarni tashkil etish maqsadida tadbirkorlarga “Oilakredit.uz” platformasi orqali “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida 33 mln. so‘mdan 3 mlrd so‘mgacha 14 foizli onlayn imtiyozli kreditlarni ajratish yo‘lga qo‘yildi. Bu islohot ham infratuzilmani yaxshilashga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida davlat siyosati va vakolatli organ tadbirkorlarga, mamlakat rezidentlariga, turizm industriyasi doirasida juda katta imkoniyatlar berdi.

Ichki turizmni tashkil etish mexanizmini shakllantirishda:

- 14 hudud;
- 208 tuman;
- 828 sektor;
- 9314 MFY ajratib olamiz. Mamlakat bo‘ylab umumiy ichki sayyohlar soni 10 mln nafarni tashkil qiladi. Shundan jamoalarga ajratadigan bo‘lsak:
- mehnat jamoasi
- yoshlar jamoasi
- mahalla jamoasi
- individual guruhlarga bo‘lib chiqiladi.

Ichki turistlar oqimlarini ta’minlash maqsadida yil davomida amalga oshiriladigan transport qatnovlari havo yo‘llari 6451, temir yo‘llari 1992, avtobus qatnovi esa 34926 ta qilib rejalashtirilgan[2].

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” shiori ostida respublika bo‘ylab jami o‘rnatilagan banner reklamalar soni 443 tani, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda media kontentlar soni 50 tani tashkil etdi.

Eng asosiy rejada “CASHBACK” tizimini ishga tushirish ishlari va dasturlari yozilmoqda. Bundan maqsad ichki turistlarga o‘zlari amalga oshirgan xarajatlarni ma’lum qismini yana qaytarib o‘ziga berishdan iborat.

Rejalar shuni ko‘rsatadiki, mamlakat bo‘ylab temir yo‘l chiptalaridan 15%, mahalliy aviaqatnovlar chiptalaridan 15%, joylashtirish vositalari xizmatlari narxidan 20%, madaniyat tashkiloti xizmatlari narxining 50% gacha chegirma ya’ni cashback qaytariladi. Bu ichki turizmni rivojlantirishda asosiy mexanizmlar hisoblanadi.

Reja-grafik bo‘yicha mehnat jamoalarida faoliyat olib borayotgan 228 ming xodimlarning sayohatlari tashkil etilmoqda.

“Ayollar daftari”ga kiritilgan 30 yoshdan yuqori xotin-qizlarning sayohatlarini tashkil etish bo‘yicha reja-grafigi etib 50 ming kishi belgilangan.

“Notinch oilalar”ga oilaviy sayohatlarini tashkil etish bo‘yicha reja-grafik etib 1000 kishi belgilangan.

51,4 ming o‘quvchi-talabalar va korxona xodimlarini mo‘ynoq tumaniga sayohat safarini tashkil etish bo‘yicha reja-grafik tuzilgan.

“Manguberdi vataniga sayohat qil” ichki turizm dasturi orqali o‘quvchi, talaba va nuroniylar Xorazmga safarini tashkil etish reja-grafigiga 55 ming kishini jalb qilish nazarda tutilgan.

Viloyatlar kesimida mamlakat bo‘ylab ichki turizm oqimini tashkil etish reja-grafigiga 10 mln kishi kirishi belgilangan.

2 Turizm qo‘mitasi ma’lumoti.

Ichki turizmni rivojlantishda maxsus dasturlarni amalda bajarishda bir kunda viloyatlararo muntazam ravishda 20 aviareyslar, 61 temir yo'l qatnovlari, 32 avtobus marshrutlari yo'lga qo'yildi. Bu ichki sayyohlar harakatini amalga oshirishda bugungi kun talabiga mos keladigan grafik hisoblanadi.

Umumiy ovqatlanish shahobchalari 22 869 taga ko'paydi va muntazam ishlab kelmoqda.

Sanitariya gigiyena shahobchalari esa 6000 tani tashkil etadi. Bular ichki sayyohlarni tozalikka bo'lgan talabini qondirishga xizmat qilmoqda.

Respublikamizda bugungi kunda gid-tarjimonlar soni 2400 nafarni tashkil qiladi.

Turizmda axborot markazlari xizmatlari 128 tani tashkil etmoqda. Bu juda muhim xizmat hisoblanib, turistlar ma'lumot olishda foydalanadilar.

Ichki turizmni keng targ'ib qilishda vositachi hisoblangan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi va Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi "Milliy PR-markazi" DUKsi mas'ul etib tayinlandi.

1537 turoperatorlar orqali

- tarixiy maskanlar
- ziyoratgohlar
- teatr, muzey
- istirohat bog'lari
- ko'ngil ochar bog'larga sayohatni amalga oshirish dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi kunda faoliyat olib bormoqda.

"O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida ichki sayyohlarni viloyatlar kesimida ham taqsimlab chiqildi. Mazkur 2-rasmda 2023-yilda hududlarda ichki turizm reja-grafigi ishlab amaliyotga tatbiq etilmoqda.

2-rasm: 2023-yilda hududlarda ichki turizm reja-grafigi3

| № | Hududlar | Ichki sayohlar soni (ming) nafar |
|---|---|---|
| 1 | Toshkent shahri | 669 |
| 2 | Andijon | 761 |
| 3 | Buxoro | 462 |
| 4 | Farg'ona | 911 |
| 5 | Jizzax | 337 |
| 6 | Namangan | 685 |
| 7 | Navoiy | 241 |
| 8 | Qashqadaryo | 797 |
| 9 | Samarqand | 942 |
| 10 | Sirdaryo | 205 |
| 11 | Surxondaryo | 641 |
| 12 | Toshkent viloyati | 688 |
| 13 | Xorazm | 450 |
| 14 | Qoraqolpog'iston Respublikasi | 455 |

Har bir viloyat hududlar kesimida turizm boshqarmasi hokimliklar bilan hamkorlikda ichki sayyohlarni harakatini belgilab mazkur yuqoridagi reja-grafikni shakllantirgan bo'lib, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlari aktiv faoliyat olib bormoqda. Grafiklar ishlashi ortidan hududlarda infrastruktura yetishmasligi yoki muammolar oldi olinadi va ichki sayyohlar oqimi barqaror bo'lishga xizmat qiladi.

Ichki turizmni rivojlantirishda investitsion holatga qarab o'tamiz. 2021-yilda sohada investitsiya loyihalari doirasida umumiy qiymati 11,4 trillion so'm mablag' o'zlashtirilib, 495 ta loyiha amalga oshirilgan.

Davlat investitsiya dasturi asosida mahalliy hokimliklar bilan birga 1,2 milliard dollarlik 62 ta loyihadan 562,7 million dollar investitsiya o'zlashtirilib, 31 ta loyiha ishga tushirilgan.

2022-yil yakuniga qadar turizm sohasida jami qiymati 21,6 trillion so'mlik 727 ta loyihalar ishga tushirilib, tarmoqda qo'shimcha 22 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratilgan.

3 Turizm qo'mitasi ma'lumoti.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya jalb qilish hamda raqobatbardosh xizmatlarni yo'lga qo'yishga berilgan e'tibor natijasida turizm bozoriga bir qancha yetakchi mehmonxona brendlari kirib kelmoqda. Ular nafaqat Toshkent, balki Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlariga ham qiziqish bildirib, o'z faoliyatlarini tashkil qilmoqda.

O'zbekiston Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-72-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Investisiya dasturi" ga xizmatlar sohasida qiymati 6 milliard 217 million 900 ming dollar bo'lgan 144 ta loyiha kiritilgan. Shundan 3 milliard dollari (78 ta loyiha) turizm va madaniy meros sohalariga to'g'ri keladi.

Hududiy investitsiya loyihalari hamda tadbirkorlik subyektlarining tashabbuslari bilan jami qiymati 10,5 trillion so'm bo'lgan 689 ta loyiha amalga oshirilishi va 17 ming 426 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda.

Vakolatli organ axborotiga qaraganda respublikada 2022-yil 1-iyul holatiga qiymati 5,7 trillion so'm bo'lgan 378 ta loyiha amalga oshirildi va natijada 9 ming 584 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Turizm infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar tadbirkorlikni riaojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Madaniyat va turizm vazirligi bergan ma'lumotlarga ko'ra, respublikada 2018-2022-yillar davomida jami 6 ming 788 ta yangi sanitariya-gigiyena shoxobchasi foydalanishga topshirildi. Avtomobillarga yoqilg'i quyish stansiyalarining sanitariya-gigiyena shoxobchalari bilan ta'minlanish ko'rsatkichi 20 foizdan 96,9 foizga yetkazildi.

Turizm obyektlarida 3 ming 652 ta Wi-Fi nuqtalari tashkil etildi, 1 ming 901 ta yo'l ko'rsatkichlar o'rnatildi, 132 ta axborot markazlari barpo qilindi. 440 ta yangi turizm obyektlari o'rganilib, ushbu obyektlarning 250 turizm marshrutlariga kiritildi.

Bundan tashqari, turizm obyektlari atrofidagi yer maydonlarini obodonlashtirish, suv va yo'l infratuzilmalarini yaxshilash maqsadida respublika byudjeti mablag'laridan 1 trillion so'm ajratildi.

Sohada xorijiy va mahalliy sayyohlarga joylashtirish xizmatini ko'rsatuvchi tadbirkorlikni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Mahalla fuqarolari yig'inlari, tog'li va olis qishloqlarda mahalliy aholini ish bilan ta'minlash va maqbul narxlardagi joylashtirish vositalariga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash maqsadida joylarda oilaviy mehmon uylari tashkil qilinmoqda.

Turizm sohasiga gidlarni tayyorlash yo'nalishida ham ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Jumladan, 2018-yilda gidlar 574 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning 1-iyul holatiga ularning soni 2,4 ming nafarga tashkil qiladi.

Sohada tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 100 ga yaqin soliq va bojxona imtiyozlari, xarajatlar va kreditlarni bir qismini qoplash, subsidiya hamda grantlar berish, foizsiz ssudalar ko'rinishida davlat tomonidan qo'shimcha ko'mak va preferensiyalar berildi.

Yoshlarni turizm sohasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2022-yilning avgust oyidan boshlab turoperatorlik faoliyatlarni yo'lga qo'yishlari uchun 50 million so'mdan grant mablag'lari berilmoqda.

O'zbekistonda 91 ta xorijiy mamlakat uchun vizasiz rejim tatbiq etilgani ham sayyohlik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2018-yil 15-iyuldan elektron kirish vizalarini berish tizimi yo'lga qo'yildi va bu tizimdan 57 ta davlat fuqarolari foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi hamda 101 mamlakat fuqarolari uchun vizasiz tranzit rejimi joriy etildi.

Shu bilan birga xorijiy sayyohlarga bir qator qulayliklar yaratildi. Xalqaro aeroportlarda "yashil" va "qizil" yo'lak tizimi yo'lga qo'yildi, tashrif buyuruvchilar aeroportdan o'rtacha hisobda 2-3 soatda chiqib ketish vaqti 15-20 daqiqada amalga oshiriladigan tizim yaratildi.

Mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlarni ro'yxatga olish tizimini takomillashtirish va soddalashtirish maqsadida xorijiy fuqarolarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi butunlay elektron shaklga o'tkazildi (e-mehmon) tizimi.

Bugun turizm yo'nalishlari qatorida ziyorat turizmi alohida o'ringa ega. O'zbekistonda mazkur yo'nalishda ham yaxshi natijalarga erishilmoqda.

Hisob-kitoblarga qaraganda, 2019-yilda respublikaga tashrif buyurgan 6,7 million nafar xorijiy sayyohlarning 88 foizi musulmon mamlakatlari hissasiga to'g'ri keldi.

2018-yilda uzoq xorij davlatlaridan 325 ming 827 nafar sayyoh O'zbekiston bo'ylab sayohat qilgan va ularning 35 foizi, ya'ni 115 ming 621 nafari musulmon sayyohlar bo'lgan. 2019-yilda musulmon sayyohlar soni jami uzoq xorij mamlakatlaridan kelgan sayyohlar soniga nisbatan 34 foizni tashkil qilgan.

2021-yil 9-fevraldagi prezident farmoniga ko'ra, 2021-yil 1-martdan boshlab, Bahrayn, Qatar, Kuvayt, Ummon sultonligi fuqarolari 10 kungacha vizasiz rejim tizimi orqali O'zbekistonda sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

2019-yilning 21-23-fevral kunlari Buxoro shahrida o'tkazilgan "Xalqaro ziyorat turizmi forumi"da O'zbekistonni ziyorat turizmi markazlaridan biri sifatida e'tirof etish to'g'risida "Buxoro deklaratsiyasi" qabul qilingan.

Shu bilan birga respublika "Halal travel frontier" 2020 hisobotida islomiy merosni 2020 hisobotida islomiy merosni qayta tiklash orqali musulmonlar turizmi bozorida yangi trendga asos solgan mamlakat sifatida e'tirof etilgan.

## XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Madaniyat va turizm sohalarining mavjud muammolari va ularning yechimlari masalalari bugungi kunning dolzarb masalalari bo‘lib turibdi. Muammolarning yechishda rejali ishlarni amalga oshirmoqda. Bunda vakolatli organ “start-up” loyihalar, fundamental loyiha va amaliy loyihalar tanlovini o‘tkazmoqda. Mazkur loyihalarni moliyalashtirish ishlari olib borilmoqda. Jumladan, tematik mavzular bo‘yicha 2018-2022 yillarda 50 loyihaga 34,8 milliard so‘m ajratilgan. Shu yillar kesimida moliyalashtirilgan loyihalar soni 29 bo‘lib, umumiy miqdorda 18,0 milyard so‘mni tashkil qildi.

“Start-up” loyihalar tanloviga esa birgina 2020-yil uchun 1,5 milliard so‘m ajratilgan. Bundan 7 ta loyiha g‘olib bo‘lgan va 0,7 milliard so‘m moliyalashtirilgan. Bu ko‘rsatkich 2021-yilga kelib 0,8 milliard so‘mni tashkil etgan. Zamon talabiga mos turizm xizmatlarini ishlab chiqishni ko‘zlagan bu loyihalar g‘oliblar tomonidan amaliyotga tatbiq qilinmoqda.

Albatta, har bir sohada mavjud muammolarni bartaraf etishda faqat ilmiy tomondan yechim topgani kabi turizmni industriyasini rivojlantirishda ilmiy sohalariga e’tibor qaratish lozim.

Bunda ilmiy ishda xulosalar va takliflar berib o‘tilgan:

- madaniyat va turizm sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan buyurtmalar portfelini shakllantirish.
- yosh olimlarning xorijiy ta’lim va ilmiy tadqiqot markazlari bilan aloqa o‘rnatishiga amaliy yordam berish.
- OTM va ITMlarni ilmiy, innovatsion salohiyatini oshirish o‘quv kurslari, seminarlar tashkil etish.
- olimlarning ilmiy-innovatsion loyihalardagi ishtirokini oshirish
- ilmiy va innovatsion loyihalarni ikki barobarga ko‘paytirish
- olimlarning ilmiy-innovatsion loyihalardagi ishtirokini oshirish.
- xorijiy markazlar, yetuk mutaxassislarni jalb qilgan holda master klasslar tashkil etish.
- OTM va ITM larda tayanch doktarantura kvotalarini oshirish.

Ushbu yechimlarni amaliyotga tatbiq etish rivojlanishga qadam tashlash hisoblanadi. Respublikamizda turizm sohasi yo‘nalishida 26,5% ilmiy darajaga ega mutaxasislar ishlab kelmoqda va sohalardagi OTM va ITMlarning ilmiy loyihalar tanlovlarida ishtirok etish tajribasi yetarli emas. Vakolatli davlat organining bevosita kafedralar bilan loyihalar ustida ishlash markazini tashkil etish ham maqsadga muofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslar:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 07-fevraldagi PQ-3514-son qarori “O‘zbekiston bo‘ylab sayyohat qil!” ichki turizmni rivojlantirish dasturi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
4. Dehqonov Burxon Rustamovich. “Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o‘rni” yashil iqtisodiyot va taraqqiyot (ISSN: 2992-8982) 2023-yil, oktyabr. № 10-son.
5. Rustamovich D. B. Quality And Safety Of Public Catering Services In Uzbekistan //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)(2021/5/23). – C. 19-23.
6. B. R. Dehqonov. “Ichki turizmni ta’riflashda bo‘lgan qarashlar va turizm shakllarini o‘z ichiga olgan bog‘liqliklar” Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. - №4-1 (88), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2022-y. – 81 b.
7. Rustamovich Dehkonov Burhon. “Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan”. Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28-33.
8. Rustamovich Dehganov Burkhan. “Financing Domestic Tourists And Export Of Tourism Services”. Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya jurnali| journal of science, education, culture and innovation 2.3 (2023): 35-37.
9. https://uzbektourism.uz/service/opendata
10. https://uzbektourism.uz/service/opendata?id=1
11. https://uzbektourism.uz/research/statistics

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.